

S.A. Ishanxodjayev, R.T. Xakimov

HUQUQSHUNOSLIK



UO'K: 340.1(075)

KBK: 67

H - 20

S. Ishanxodjayev

Huquqshunoslik / S. Ishanxodjayev, R. Xakimov. -T.: Yangi asr avlodi, 2014. - 244 b.

Mazkur darslikda davlat va huquq nazariyasi fanining tushunchasi va predmeti, davlat va huquqning vujudga kelishiga doir nazariyalar, fuqarolik huquqiy munosabatlari, subyektlari va manbalari, ota-onalar hamda bolalarning huquqi va majburiyatlari, ota-ona hamda voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkii huquq va majburiyatlari tushunchasi bayon etilgan.

Huquqshunoslik fani o'quv rejasidagi barcha fanlar bilan uzluksiz bog'liqdir. Ushbu fan bevosita «Tadbirkorlik huquqi», «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi», «Mehnat huquqi», «Soliq qonunchiligi asoslari», «Ma'muriy va xo'jalik huquqi», «Moliya huquqi», «Xalqaro huquq» va boshqa huquqiy fanlar bilan aloqadorlikda o'rgatiladi.

Huquqshunoslik fani bo'yicha tavsiya etilayotgan darslik akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlarning talabalari foydalanishlari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

I. Umaraxunov, yuridik fanlari doktori

A. Mo'minov, yuridik fanlari nomzodi, dotsent

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim va Xalq ta'limi vazirligining 2010-yil 1-iyuldagi 6/1 va 4/2-sonli qo'shma Hay'at majlisi qarori bilan tasdiqlangan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Ushbu kitobni nashrga tayyorlashda yaqindan yordam bergan Umid Davidovga, Jaloliddin Nurillayevga, Sabit Eserkepovga, Azimjon Hakimovga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

ISBN 978-9943-27-299-6

© S. Ishanxodjayev, R. Xakimov. «Huquqshunoslik» Yangi asr avlodi», 2014-yil.

KIRISH

Yurtimizda demokratik huquqiy davlat va bozor iqtisodiyotini qaror toptirish yo'lida huquqiy jihatdan ko'pgina ishlar qilinmoqda. Respublikada davlat idoralarning va shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tizimi izchil shakllantirilmogda. Demokratik institutlarni hayotimizga olib kiruvchi va bozor munosabatlarini ma'naviy-ma'rifiy shaklda joriy etishga imkon beruvchi qonunlar majmuyi yaratilishiga kirishildi.

Hozirgi vaqtda yagona iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi, demokratik siyosiy tarkibiy tuzilmalarni hamda fuqarolik jamiyati bo'g'inlarini vujudga keltiruvchi, inson huquqlari kafolatlari tizimini shakllantiruvchi, demokratik siyosiy tizim tarkibiy tuzilmalarini hamda fuqarolik jamiyati bo'g'inlarini vujudga keltiruvchi, butun ijtimoiy-siyosiy hayotimizning huquqiy negizini barpo etadigan ko'plab qonun hujjatlari qabul qilinmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatimiz mustaqilligining chinakam iqtisodiy buyuk ramzi, yangi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar dunyoga kelishining mustahkam poydevori bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Taqdim qilinayotgan mazkur darslikning asosiy maqsadi talaba-yoshlarimizga huquqshunoslik faniga oid nazariy tushunchalar va ularning amalga oshirilishida bevosita xizmat qiluvchi qonun-qoidalarini, ularning mohiyatini o'rgatish, shuningdek, huquq sohalari - davlat va huquq asoslari, ma'muriy huquq, fuqarolik huquqi, mehnat huquqi, oila huquqi, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish asoslari, ekologiya huquqi, jinoyat huquqi, xalqaro huquq asoslari borasidagi huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada shakllantirishdir.

Hozirgi davrda huquqshunoslik fanining o'rni va mavqeyi tobora ortib bormoqda, chunki jahon moliyaviy inqirozining

ИИБ № 529254

ТомДАУ ТамГАУ

O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda oqibatlarining oldini olish va yumshatishda, bank tizimini qo'llab-quvvatlashda, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishda, texnik yangilash va diversifikatsiya qilishda, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish – O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'llarini belgilashda fanni o'rganishning rivojlantiruvchi shartlaridan biri sifatida fuqarolarning konstitutsiyaviy-huquqiy dunyoqarashlarini zamon talablariga mos ravishda shakllantirish, ularni o'z huquqlarini yaxshi biladigan, o'zini huquqiy jihatdan himoya qila oladigan shaxslar sifatida tarbiyalashdir. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda: «Yosh avlodimizning qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar rubida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma'no-mazmuni va asl sabablarini chuqur anglashi, o'z atrofida sodir bo'layotgan voqealar haqqoniy ma'lumotlarga, eng muhimi, o'z mustaqil fikriga ega, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo'lishiga erishish ta'lim-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezon bo'lishi darkor»¹ kabi vazifalar ilgari surilmoqda. Bu vazifalarni bajarish yo'llaridan biri esa bozor munosabatlarining iqtisodiy va huquqiy asoslarini tushunarli tildagi darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy-ommabop asarlar yaratishdir.

Bundan tashqari, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash, ularni bozor iqtisodiyotining huquqiy bilimlari bilan yetarli qurollantirish, bo'lg'usi mutaxassis kadrlar ongida zamonaviy tafakkurni rivojlantirish eng dolzarb masalalardan biridir. Prezidentimiz aytganlaridek: «Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichidagi eng muhim yo'nalishlaridan biri bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashirish va liberallashtirishdan iborat. Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda

¹ I.A.Karimov. «Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish». –T.: «O'zbekiston», 2009. – 8–9-betlar.

huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun asosiy vazifa bo'lib qolmoqda»¹.

Huquqshunoslik fani o'quv rejasidagi barcha fanlar bilan uzluksiz bog'liqdir. Ushbu fan bevosita «Tadbirkorlik huquqi», «O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi», «Mehnat huquqi», «Soliq qonunchiligi asoslari», «Ma'muriy va xo'jalik huquqi», «Moliya huquqi», «Xalqaro huquq» va boshqa huquqiy fanlar bilan aloqadorlikda o'rgatiladi.

Huquqshunoslik fani bo'yicha tayyorlangan darslik akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlarning talabalari foydalanishlari uchun tavsiya etiladi.

¹ I.A.Karimov. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi». –T.: «O'zbekiston», 2011. – 15–16-betlar.

I BOB. JAMIYAT, DAVLAT VA HUQUQ

1.1. Davlat va huquq nazariyasi fanining tushunchasi va predmeti, davlat va huquqning vujudga kelishiga doir nazariyalar

Davlat va huquq nazariyasi – davlat va huquqning yuzaga kelishi, shakllanishi va rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, shuningdek, davlat va huquqning alohida ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar va sivilizatsiyalar doirasida faoliyat ko'rsatuvchi xilma-xil turlari yuzaga kelishi, shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos qonuniyatlarini o'rganuvchi ijtimoiy-siyosiy, yuridik fan va ta'lim sohasidir.¹

Davlat va huquqning rivojlanishining asosiy va umumiy qonuniyatlari, ularning mohiyati va maqsadi, vazifasi, jamiyat hayotidagi ahamiyati va o'z mi davlat va huquq nazariyasining predmeti hisoblanadi.

Davlat va huquq nazariyasi ba'zi olimlar hisoblaganidek, biridan ajratib qo'yilgan fan sohasi emas, balki yaxlit fanidir. Davlat va huquq ularning birligida va o'zaro aloqadorligida o'rganiladi. Davlat huquq tamoyillarini huquqiy normada mustahkamlaydi va ularning ro'yobga chiqishini ta'minlaydi, huquq esa davlat va uning tuzilmasi organlarining faoliyatini tartibga soladi.² Davlat va huquq nazariyasi jamiyat, davlat huquq tushunchalari va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ham o'rganadi.³

¹ O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. / Nashr uchun mas'ul: R.A.Muhtidinov va boshqalar. Mas'ul muharrir: N.Toychiyev. – T.: «Adolat», 2010. – 104-bet.

² O. Karimova. Huquqshunoslik: akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: «Sharq», 2012. – 9-bet.

³ H.H. Mahmudov, R.T. Berdiyarov, G.M. Isroilova. Huquqshunoslik: noyuridik oliy o'quv yurtlari bakalavriyatlari uchun darslik. – T.: «Voris-nashriyoti», 2010. – 8-bet.

Jamiyat (arab. jamlanmoq, uyushmoq) – tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlar mahsuli. U kishilar o'rtasidagi o'zaro harakatlarning mahsuli, ular hayotning ma'lum bir tashkiliyligi, mohiyati jihatdan kishilar va ularning guruhlari o'rtasidagi turli xil munosabatlar va aloqalar yig'indisidir.¹

Jamiyat – odamlarning uyushgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlovchi ixtiloflarni bartaraf qiluvchi, madaniyatni saqlab rivojlantiruvchi madaniyat majmuyi va uning qismlari asosida tashkil topgan ijtimoiy hayot shakllarining sintezi, turli ijtimoiy guruhlarni, tabaqalarni, shaxslarni, oilalarning bir-biriga zid xohish-istaklarini birlashtiruvchi, integrallashtiruvchi ongli ijtimoiy harakatlarni majmuyi, ularning munosabatlarini belgilovchi ijtimoiy munosabatlarni umumiy shaklimi yaratuvchi turli tashkilot va muassasalarning majmuyi.²

Jamiyat – undagi odamlarning o'zaro bog'liqligi, hamkorligi asosida tashkil topadi. Bu hamkorlik har bir jamiyatdagi shaxsning kamol topishiga ko'maklashishi lozim. Jamiyat bugun birlashib, ertaga tarqalib ketadigan uyushma emas. Bu mustahkam, bir-biriga bog'langan, doim yashash imkoniyatiga ega jamoa uyushmasidir. Bu jamiyatdagi o'zaro bog'liqlik natijasida odamlar kamol topishi, rivojlanib borishi kerak. Odamlarning birlashib yashashlari va fikrlashlari uchun qandaydir g'oya ularni birlashtirib turadi.³

Davlat – umuman olganda, jamiyat birligi va yaxlitligini ta'minlovchi, davlat mexanizmi vositasida jamiyat ishlarini boshqaruvchi, suveren ommaviy hokimiyatni amalga oshiruvchi, umummajburiylik maqomini beruvchi, fuqarolar huquq va

¹ O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. / Nashr uchun mas'ul: R.A.Muhtidinov va boshqalar. Mas'ul muharrir: N.Toychiyev. – T.: «Adolat», 2010. – 165-bet.

² Yuridik atamalar qomusiy lug'ati. / Mas'ul muharrir: X.R.Rahmonqulov. Adabiy muharrir: B.A.Eshpo'latov // – T.: «Sharq», 2003. – 141-bet.

³ O. Karimova. Huquqshunoslik: akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: «Sharq», 2012. – 15–16-betlar.

erkinliklarini, qonuniylik va huquq-tartibotni kafolatlovchi jamiyatning siyosiy tashkiloti.¹

Davlat va huquqning paydo bo'lishi haqidagi tushuncha va tasavvurlar dunyo olimlari tomonidan turli xil tarzda talqin qilinadi. Har bir olim o'z nuqtayi nazarini ilgari suradi. Ushbu nazariyalarning birortasini to'g'ri deb bo'lmaydi. Chunki fan o'zaro qarama-qarshi fikrlar asosida takomillashadi va rivojlanadi.

Davlat va huquqning paydo bo'lishi masalasiga to'xtalishdan oldin tarixga murojaat qilish lozim. Negaki davlat paydo bo'lmagan davrda ham yer yuzida hayot bo'lgan va insonlar turmush kechirganlar. Davlat paydo bo'lgunga qadar insoniyat davlatsiz hayot kechirgan.

Insoniyat ibtidoiy jamiyatdan to davlat paydo bo'lgunga qadar ibtidoiy odamlar to'dasi davri, ibtidoiy jamoa davri va ibtidoiy jamoaning yemirilishi davrlarini boshidan kechirgan. Muayyan davrlarning o'tishi bilan davlatsiz jamiyat hisoblanmish ibtidoiy jamiyat o'z o'rnini davlatli jamiyatga bo'shatib berdi va shu asnoda davlat va huquq shakllandi.

Davlat va huquq bir paytda paydo bo'lgan. Davlat va huquq bir-biridan alohida paydo bo'lmaydi, balki ular bir vaqtda paydo bo'ladi va bir-birini taqozo etadi. Davlat huquqsiz, huquq esa davlatsiz vujudga kelmaydi.

Davlatning paydo bo'lishi haqida bir qancha olimlar turli xil nazariyalarni ilgari suradilar va o'z g'oyalarini isbotlashga harakat qiladilar.

Davlatning paydo bo'lishi haqida quyidagi nazariyalar mavjud: sinfiy nazariya, diniy nazariya, patriarxal nazariya, shartnoma nazariyasi, zo'rlik nazariyasi, psixologik nazariya, irrigratsiya nazariyasi.

Sinfiy nazariya. Bu nazariya XIX asming ikkinchi yarmida G'arbiy Yevropada vujudga kelgan bo'lib, XX asming 90-yillarigacha o'z ta'sir kuchiga ega bo'lgan. Mazkur nazariya

¹ O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. / Nashr uchun mas'ul: R.A.Muhtidinov va boshqalar. Mas'ul muharrir: N.Toychiyev. – T.: «Adolat», 2010. – 98-bet.

vakillari K.Marks, F.Engels ijtimoiy mehnat taqsimoti, ortiqcha mahsulot va xususiy mulkning vujudga kelishi, jamiyatning qarama-qarshi iqtisodiy manfaatlariga ega sinflarga ajralishi tufayli vujudga kelgan deyiladi.

Diniy nazariya – o'rta asrlarda hukmron bo'lgan. Hozirgi davrda boshqa nazariyalar bilan birgalikda Yevropa va boshqa qit'alarga tarqalgan. Mazkur nazariya vakillari A.Avgustin, F.Akvinskiy, Mariten, Marseler hisoblanib, davlatning xudo tomonidan yaratilganligi xususida o'z fikrlarini bildiradilar. Ular butun hokimiyat xudoniki, degan g'oyani ilgari suradilar. Davlatni boshqarayotgan shaxs, ya'ni hukmdor podsho xudoning yerdagi vakili hisoblanib, uning amriga itoat qilmaslik xudoga shak keltirish bilan bab-baravar, deb tushuniladi.

Patriarxal nazariyaning mohiyati shundaki, uning mualliflari fikricha, davlat oila andozasi bo'yicha vujudga keladi. Mazkur nazariya tarafdorlarining ta'kidlashicha, davlat – oilaning taraqqiy etishi natijasida paydo bo'lgan. Dastavval oila paydo bo'lgan, so'ngra oila o'sib urug'ga, urug' qabilaga, qabila esa davlatga aylangan, deyiladi. Monarx hokimiyati esa go'yo oilaning barcha a'zolariga rahbarlik qiladigan otadan meros bo'lib o'tgan, deb hisoblaydilar. Ushbu nazariya Yunonistonda (qadimgi Gretsiyada) paydo bo'lgan va Aristote'l asarlarida asoslanib berilgan. XVII asrda yashagan ingliz olimi Filmerning «Patriarx» asarida rivojlantirilgan. Muallif Injilga asoslanib, Odam Atoning hokimiyatni xudodan olib, o'zining katta o'g'li patriarxga, u esa o'zining avlodlari bo'lgan qirollarga berganligini isbotlashga harakat qilgan.

Shartnoma nazariyasi XVII va XVIII asrlarda vujudga kelgan bo'lib, ushbu nazariya vakillarining ta'kidlashicha, hokimiyat xalq tomonidan, xalqning monarx bilan bitishuvi natijasida o'rnatiladi, deyilgan. Gollandiyada ushbu nazariyani Gugo Grotziy va Spinoza, Angliyada Lokk va Gobbs, Fransiyada Jan Jak Russo, Rossiyada A.N.Radishchev rivojlantirgan. I.J.Russo ushbu nazariya bo'yicha «Ijtimoiy shartnoma» nomli kitobini yozgan bo'lib, mazkur kitobda u «Agar monarx

hokimiyatni suiiste'mol qilsa, xalq qo'zg'olon ko'tarishga va monarxni taxtdan ag'darishga haqli», deydi.

Zo'rlik nazariyasi vakillari fikriga ko'ra (Gumplovich, Kautskiy) davlatning kelib chiqishida zo'rlik harakati, bir xalqning boshqa xalq tomonidan bosib olinishi yotadi. Davlat g'olibning hokimiyatini mustahkamlash uchun tuziladi.

Psixologik nazariya tarafdorlari G.Tarrd, Z.Freyd va L.I.Petrajtitskiylardir. Bu nazariya davlatning kelib chiqishini kishilarning hukmronlikka va bo'ysunishga ehtiyoji bilan izohlaydi. Rus olimlari Korkunov va Petrajtitskiylar davlat insonning bo'ysunishga intilishi orqasida paydo bo'ladi, deb hisoblaydilar. Psixologik nazariya xalqni alohida xususiyatlarga ega bo'lgan kishilarga bo'ysunishni istovchi passiv omma, deb ataydi.

Irrigatsiya nazariyasi davlatning kelib chiqishi ularning ilk shakllari Sharqda ulkan irrigatsiya inshootlarini qurish va ulardan foydalanish bilan bog'liqlikni ifodalaydi. Ushbu nazariya nemis olimi Vittifogelning «Sharq istibdosi» asarida ifodalab berilgan. Shuningdek, O'zbekiston hududida davlatning paydo bo'lishi ham bevosita irrigatsiya nazariyasi bilan bog'liqdir.

Huquqning paydo bo'lishi haqida olimlar turli xil nazariyalarni ilgari suradilar.

Tabiiy huquq nazariyasi – ushbu huquq nazariyalarning eng qadimiy turi hisoblanadi. Ushbu nazariya vakillari huquqning o'zida adolatning mutlaq o'zgarmas ibtidosini mujassam etganligidan kelib chiqadi. Huquq tabiatan mavjud, uni hech kim o'ylab topmagan, u xuddi inson kabi tabiiydir.

Huquqning tarixiy nazariyasi – mazkur nazariya vakillari huquqning tabiatan mavjudligini inkor etishadi, ya'ni huquq aslo tabiatan paydo bo'lmagan, balki huquq tarixan paydo bo'lgan va rivojlangan, deb hisoblaydi. Yerga ekilgan urug' kabi u xalqning ongida o'sib boradi va adolat qonunlari shaklida namoyon bo'ladi. U yoki bu xalqning tarixiy hayoti huquqni qanday ko'rinishga keltirsa, u shunday bo'lib qoladi.

Huquqning psixologik nazariyasi vakillarining ta'kidlashicha, huquqning kelib chiqishi va rivojlanishi shaxs va

shaxslar guruhining psixologiyasi bilan izohlanadi. Huquq psixologik yo'nalishlar, turli kechinmalar, hissiyotlar va instinktlarning mahsulidir, deb uqtiriladi.

Huquqning diniy nazariyasi XVII – XVIII asrlarda vujudga kelgan bo'lib, asosiy vakili Foma Akvinskiy hisoblanadi. Uning davrida amaldagi huquqning asosini ilohiy qonunlar va tabiiy huquqlar tashkil qiladi, deb e'lon qilingan. Bu nazariyani Islom dini va katolik cherkovi namoyandalari qo'llaydi.

Huquqning kelib chiqishini tushuntirishda teologik nazariya tarafdorlari Asosiy qonunlar insonga xudo tomonidan beriladi, deb ko'rsatilgan diniy kitoblarga tayanganlar. Masalan, Tavrot, Zabur, Injil, Qur'on.

Huquqning sinfiy nazariyasi vakillarining ta'kidlashicha, huquq tabiiy ham, tarixan ham, hatto psixologik holda ham vujudga kelmagan, balki huquq hukmron sinfning manfaatlarini himoya qilish uchun davlat bilan bir vaqtda unga siyosiy qurol sifatida maydonga chiqqan, deyiladi.

Ularning fikricha, huquqning paydo bo'lishida uchta bosqich mavjud bo'lgan:

Birinch bosqich – odatning mutlaq hukmronligi davri;

Ikkinchi bosqich – odat bilan huquqning bir vaqtda bo'lish davri;

Uchinchi bosqich – huquqning mutlaq hukmronligi davri.

Mazkur nazariya vakillari huquqning tezda odat o'rnida egallanmaganligi, balki asta-sekinlik va vaqt o'tishi bilan odat huquqqa o'z o'rnini bo'shatib berganligini isbotlashga harakat qilganlar. Sinfy nazariya vakillari huquqning paydo bo'lishida asosiy sabab sifatida odat normasiga asosan hamma teng huquqli bo'lganligini, bu esa iqtisodiy jihatdan hukmron sinfga, ya'ni quldorlarga to'g'ri kelmaganligi tufayli odat normalaridan voz kechilganligi va buning o'rniga quldorlar tomonidan huquq normalarining shakllantirilganligini ta'kidlaydilar.¹

¹ X.T. Odilqoriyev, I.T. Tulteyev, M.I. Suvonqulov. Davlat va huquq nazariyasi: akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 32–35-betlar.

1.2. Davlatning funksiyasi, mexanizmi va shakllari

Davlat funksiyalari bu – davlat faoliyatining bosh yoʻnalishlari boʻlib, jamiyatni boshqarish jarayonida tegishli shakl va usullar yordamida davlatning maqsad va vazifalarini, mohiyati va ijtimoiy-huquqiy belgilarini ifoda etadi.

Davlat funksiyalari faoliyat doirasiga koʻra:

a) ichki va tashqi funksiya.

Ichki funksiya ikkiga boʻlinadi:

a) regulyativ (tartibga solish, boshqarish) funksiyasi;

b) qoʻriqlash (saqlash, muhofaza qilish) funksiyasi.

Tashqi funksiya davlatlararo vazifalarni bajarish bilan bogʻliq boʻladi.

Davlat mexanizmi – davlat organlari va muassasalarining davlat koʻrsatmalari, vazifalari va funksiyalarini amalga oshiruvchi yaxlit iyerarxik tizimdir.

Davlat mexanizmining tarkibiy elementlari – davlat apparati, davlat korxonalari, davlat tashkilotlari va muassasalari yordamida davlat oʻz hokimiyatini amalga oshiradi va jamiyatda davlat rahbarligini taʼminlaydi.

Davlat organi davlat mexanizmining tarkibiy tuzilmasi boʻlib, davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi, davlat funksiyalarini ijro etuvchi hokimiyat vakolatiga ega tizimdir.

Davlat organining oʻziga xos xususiyatlari quyidagilar:

Davlat hokimiyati – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlaridan iborat boʻlib, mustaqillik va qonuniylik asosida boshqa tizimlarga ham oʻz taʼsirini oʻtkazadi va huquqiy aloqani taʼminlaydi.

Davlat apparati – davlat mexanizmining bir qismi boʻlib, davlat hokimiyati vakolatiga ega boʻlgan davlat vazifa funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat organlari tizimi.

Davlat shakli deganda, davlatlarning tuzilishi va boshqaruv usulini belgilaydigan tashqi xususiyatlar tushuniladi. Davlat shakli uch asosiy elementni ifodalaydi:

- 1) davlat boshqaruvi shakli;
- 2) davlat tuzilishi shakli;
- 3) siyosiy tartib.

Boshqaruv shakli deganda, oliy davlat hokimiyati, uning idoralari, aholi bilan oʻzaro munosabati, aholining ushbu idoralarni shakllantirishda ishtirok etish darajasi tushuniladi.

Boshqaruv shakli ikkiga boʻlinadi:

1. **Monarxiya** soʻzi yunonchada yakkahokimlik maʼnosini bildiradi. Monarxiyaning asosiy belgilari davlatni oʻzi boshqaradi, oʻz faoliyatida mustaqildir, muddatsiz, umrbod boshqaradi. Monarx davlatni shaxsiylashtiradi, tashqi va ichki siyosatda davlat boshligʻi sifatida maydonga chiqadi.

Monarxiya *mutlaq* va *cheklangan* (parlamentar) shaklda boʻladi.

2. **Respublika** soʻzi yunonchada umumiy ish maʼnosini bildiradi. Uning asosiy belgilari:

1) hokimiyat oliy idoralarning saylab qoʻyilishi;

2) hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi;

3) hokimiyat oliy organlarining oʻz qarorlarini saylangan muddati davomida qabul qilishi;

4) qonunlarning bajarilishini nazorat qiluvchi organ boʻlgan sudlar obroʻsining ortishi;

5) fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok eta olishi.

3. **Prezidentlik respublikasini** xalq saylaydigan va juda keng vakolatlarga ega boʻlgan prezident boshqaradi. U davlat va hukumatning boshligʻidir. Bunday respublikada hukumatni prezident tuzadi. Prezidentlik respublikasiga misol qilib AQSh va Oʻzbekiston Respublikasini keltirish mumkin.

4. **Parlamentar respublikada** davlat boshligʻi saylanuvchi mansabdor shaxs boʻlib, nisbatan torroq vakolatlarga ega boʻladi. Bunda prezidentni parlament saylaydi. U rasman davlat boshligʻi hisoblanib, asosan vakillik funksiyalarini bajaradi. Uning mamlakatni tuzish va boshqarishda tutgan oʻrni nomigagina ahamiyatga ega boʻladi. U hukumatni boshqarmaydi (hukumatni bosh vazir boshqaradi). Ammo hukumat uni tarqatib yuborishi mumkin boʻlgan parlament oldida javobgardir.

5. Respublika shaklidagi boshqaruvning yana bir turi *aralash boshqaruvdir*. Bunday boshqaruvda prezidentlik va parlamentar respublikalar elementlari aralashib ketgan boʻladi.

Davlat tuzilishi bo'yicha barcha davlatlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) unitar;
- 2) federativ;
- 3) konfederativ.

Unitar davlat bu – oddiy, yaxlit davlat. Bunday davlat viloyat, oblast, okrug, rayon, tuman deb turlicha nomlanadigan ma'muriy-hududiy birliklarga bo'linadi. Bunday davlatda bitta parlament, bitta hukumat, bitta prezident bo'ladi. Unitar davlatda bitta millat bo'ladi.

Federativ davlat – murakkab ittifoqdosh davlat. Odatda u bir qancha davlatlarning birlashmasidan hosil bo'ladi, birlashganidan keyin bu davlatlar federatsiya a'zolari yoki subyektlari bo'lib qoladilar. Ular turlicha atalishi (shtatlar, o'lkalar, respublikalar) va o'z ma'muriy-hududiy bo'linmalariga ega bo'lishi mumkin.

Federatsiya **hududiy** va **milliy** turlarga bo'linadi.

Hududiy federatsiyaning xususiyatlari:

- 1) ushbu federatsiyani tashkil etuvchi davlatlar suveren bo'lmaydilar;
- 2) davlatlar mustaqil ravishda xalqaro munosabatlarda ishtirok etish huquqidan Konstitutsiyaga asosan mahrum etilgan;
- 3) ittifoqdan bir tomonlama chiqish taqiqlangan;
- 4) Qurolli Kuchlarni ittifoq idorasi boshqaradi.

Milliy federatsiyaning xususiyatlari:

- 1) subyektlari milliy davlatlar va milliy davlat tuzilmalari;
- 2) subyektlar ixtiyoriylik prinsipiga muvofiq federatsiyani tashkil etadilar;
- 3) katta va kichik millatlar suvereniteti kafolatlanadi;
- 4) oliy davlat idoralari federatsiya subyektlarining vakillaridan tashkil etiladi;
- 5) millatlar o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'ladi.

Konfederatsiya o'z suvereniteti va mustaqilligini saqlab qolgan holda u yoki bu maqsadga erishish uchun birlashgan davlatlar ittifoqi. Konfederatsiyada yagona hudud, yagona fuqarolik bo'lmaydi, har bir davlat xalqaro huquqning subyekti bo'ladi.

Siyosiy tartib – davlat hokimiyatini amalga oshirishda foydalaniladigan tartib va usullarning yig'indisi.

Har bir mamlakatda davlat hokimiyati o'ziga xos xususiyatlarga ega, shu bois siyosiy tartib ham turlicha ko'rinishda qaror topadi va namoyon bo'ladi. Biroq siyosiy tartibni muayyan belgilarga ko'ra ikki turga ajratish mumkin: **avtoritar** va **demokratik** tartiblar.

Avtoritar siyosiy tartibni izohlaydigan asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

– fuqarolarning huquq va erkinliklari cheklanganligi, bekor qilinganligi yoki umuman yo'qligi;

– davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining cheklanganligi, tugatilganligi yoki umuman taqiqlanganligi;

– davlat hokimiyati ustidan xalq nazoratining yo'qligi, ularni yashirin usullar bilan shakllantirish;

– butun hokimiyatning yagona shaxs (bir organ yoki bir necha shaxs) qo'lida to'planganligi;

– davlat hokimiyatini amalga oshirishda ma'muriy buyruqbozlik, ba'zan terrorchilik (o'zboshimchalik, zo'ravonlik) usullarining qo'llanilishi;

– taraqqiyparvar siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari faoliyatining taqiqlanganligi, cheklanganligi yoki tarqatib yuborilganligi;

– siyosiy monizm, ya'ni yakka mafkuraning ustunligi, uning davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilganligi;

– fuqarolik jamiyatining mavjud emasligi, uning institutlarining cheklanganligi, ijtimoiy manfaatlarni ifodalash imkoniyatlarining taqiqlanganligi.

Davlat va huquq nazariyasida avtoritar siyosiy tartibning dispotik, tiraniya, totalitar, fashistik turlari farqlanadi.

Demokratik siyosiy tartibda davlat fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, aholini turli jamoat tashkilotlariga birlashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini xalq ishtirokida saylash, davlatni boshqarishda keng xalq ommasining ishtirok etishi ta'minlanadi. Demokratik tartib ikki shakilda amalga oshiriladi: vakillik demokratiyasi va bevosita demokratiya.

Vakillik demokratiyasida xalq o'zi saylagan deputatlari orqali davlat ahamiyatiga ega bo'lgan iqtisodiy, siyosiy va huquqiy masalalarni muhokama qilish, hal etish haqida qaror qabul qilish va davlatni idora etishda qatnashadi.

Bevosita demokratiyada davlatni idora etishda xalqning bevosita ishtiroki ta'minlanadi, ya'ni davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalarni hal etishda umumxalq ovozigacha qo'yish (referendum)ni amalga oshirish mumkin. G'ayridemokratik siyosiy tartib demokratik usulga qarshi bo'lib, totalitar, avtoritar va fashistik shaklda bo'ladi.

Demokratik siyosiy tartibning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- fuqarolar huquq va erkinliklari kafolatlarining mavjudligi;
- davlat hokimiyatining birdan-bir manbavi xalq ekanligi;
- vakillik hokimiyati organlarining to'laqonli faoliyat ko'rsatishi;
- siyosiy qarorlar qabul qilinishi ustidan xalq nazoratining o'tatilganligi;
- hokimiyat vakolatlarining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud o'rtasida taqsimlanganligi;
- davlatning fuqarolik jamiyati hayotiga qonunsiz aralasha olmasligi;
- huquqni muhofaza etuvchi organlar faoliyatining qonunga to'la asoslanganligi;
- jamoat birlashmalari tizimining, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish idoralari mavjudligi;
- siyosiy partiyalarning muholifatda bo'lishining ta'minlanganligi;
- siyosiy plyuralizm qaror topganligi – turli ijtimoiy guruhlar o'z manfaat(fikr)larini erkin ifodalash imkoniyatiga egaligi;
- fuqarolik jamiyatining shakllanganligi.¹

¹ X.T. Odilqoriyev, I.T. Tulteyev, M.I. Suvonqulov. Davlat va huquq nazariyasi: /Akademik litsey kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. –T: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 73–75-betlar.

1.3. Huquqning normalari, manbalari va turlari

Huquq normalari davlat tomonidan o'rnatilgan kafolatlangan va muhofaza qilinadigan barcha uchun umummajburiy bo'lgan xulq-atvor qoidalaridir.

Huquq normasi – norma so'zi lotinchadan tarjima qilinganda qoida namuna ma'nosini anglatadi. Huquq normasining asosiy vazifasi – ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish. Huquq alohida normalar, xulq-atvor qoidalaridan tashkil topgan. Ular birgalikda u yoki bu davlatning huquqiy tizimini tashkil etadi. Huquq normasi tuzilishiga ko'ra gipoteza, dispozitsiya va sanksiyadan tashkil topadi.

Gipoteza – huquq normasining tarkibiy qismi bo'lib, unda norma amal qila boshlaydigan, ijro etiladigan sharoitlar bayon etiladi.

Dispozitsiya – unda xulq-atvor qoidalarining o'zi shakllantiriladi, huquq subyektlarining huquq va majburiyatlari belgilanib, tavsif beriladi. Dispozitsiya shu xulq-atvor qoidasini o'zida ifoda etadi.

Sanksiya – huquq normasining huquqbuzarga nisbatan qo'llanilishi lozim bo'lgan davlat majburlov choralarini belgilaydigan tarkibiy qismi bo'lib, huquq normasini bajarmaganligi uchun davlat majburlov chorasi hisoblanadi.

Huquq manbalari – huquqiy normalarni mustahkamlash (tashqi ifoda) shakli. Huquq manbalari asosiy turlari hozirgi zamon huquqiy tizimida quyidagilar:

- a) normativ-huquqiy hujjatlar va huquqiy odatlar;
- b) sud presedentlari, shuningdek, xalqaro shartnomalar va ichki davlat shartnomalari (normativ mazmundagi shartnomalar);
- d) normativ-huquqiy hujjatlar odat-qonunlariga, ijroiya hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlariga, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari normativ-huquqiy hujjatlariga bo'linadi.

O'zRda huquq manbalari:

- 1) O'zRning Konstitutsiyasi;

Аxbopop pecyce mappazi

17IIB № 529254

TomITAY TamITAY

MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| KIRISH..... | 3 |
| I BOB. JAMIYAT, DAVLAT VA HUQUQ | |
| 1.1. Davlat va huquq nazariyasi fanining tushunchasi va predmeti, davlat va huquqning vujudga kelishiga doir nazariyalar..... | 6 |
| 1.2. Davlatning funksiyasi, mexanizmi va shakllari..... | 12 |
| 1.3. Huquqning normalari, manbalari va turlari..... | 17 |
| 1.4. Huquqiy davlat tushunchasi..... | 18 |
| II BOB. KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ | |
| 2.1. Konstitutsiya va uning tarixiy rivojlanishi..... | 20 |
| 2.2. Konstitutsiyaviy prinsiplar va konstitutsiyaviy tuzum asoslari..... | 23 |
| 2.3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilishning tarixiy shart-sharoitlari..... | 24 |
| 2.4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari..... | 27 |
| III BOB. MA'MURIY HUQUQ ASOSLARI | |
| 3.1. Ma'muriy huquq tushunchasi, manbalari, predmeti, funksiya va prinsiplari..... | 29 |
| 3.2. Davlat va uning funksiyalari..... | 32 |
| 3.3. Ma'muriy huquqbuzarlik va javobgarlik tushunchalari hamda ma'muriy jazo turlari..... | 35 |
| 3.4. Voyaga yetmagan shaxslarning ma'muriy javobgarligi..... | 47 |
| IV BOB. FUQAROLIK HUQUQI ASOSLARI | |
| 4.1. Fuqarolik huquqi tushunchasi hamda fuqarolik-huquqiy munosabatlari, subyektlari va manbalari..... | 50 |
| 4.2. O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning muomala layoqati..... | 54 |
| 4.3. Bitimlar, majburiyatlar va shartnomalar tushunchasi, ularning shakllari..... | 56 |
| 4.4. Mulq huquqi tushunchasi, mulk shakllari, mulk huquqi subyektlari va obyektlari. Intellektual mulk tushunchasi..... | 59 |
| V BOB. MEHNAT HUQUQI ASOSLARI | |
| 5.1. Mehnat huquqi tushunchasi, manbalari, tizimi hamda mehnatga oid munosabatlarning subyektlari..... | 69 |
| 5.2. Jamoa shartnomasi tushunchasi va uning turlari..... | 74 |
| 5.3. Xalqaro mehnat tashkilotining «ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi» hamda «Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini tugatish to'g'risida»gi Konvensiyalar haqida umumiy tushunchalar..... | 76 |
| 5.4. Mehnat shartnomasining tushunchasi hamda ishga qabul qilish tartibi..... | 80 |
| 5.5. Ayrim toifadagi xodimlarga beriladigan imtiyozlar. Ayollar va yoshlar uchun beriladigan kafolatlar..... | 83 |
| 5.6. Ish vaqti, dam olish vaqti, ish haqi. Mehnat intizomi, muhofazasi hamda davlat ijtimoiy sig'urtasi..... | 87 |
| VI BOB. OILA HUQUQI ASOSLARI | |
| 6.1. Oila huquqi tushunchasi, manbalari..... | 94 |
| 6.2. Nikoh. Oila huquqi bo'yicha nikoh tushunchasi va uni tuzish tartibi..... | 100 |
| 6.3. Nikohning tugatilishi. Nikohning tugatilishi tushunchasi..... | 104 |
| 6.4. Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari. Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari tushunchasi..... | 109 |
| 6.5. Ota-onalar hamda bolalarning huquq va majburiyatlari. Ota-ona hamda voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlari tushunchasi..... | 118 |
| 6.6. Ota-ona hamda bolalarning mulkiy huquq va majburiyatlari tushunchasi..... | 121 |
| 6.7. Farzandlikka olish. Farzandlikka olish tushunchasi va uning huquqiy tabiati..... | 124 |
| 6.8. Voyaga yetmaganlarga nisbatan vasiylik va homiylik. Vasiylik va homiylik tushunchasi, uni qo'llash tartibi..... | 127 |
| VII BOB. JINOYAT HUQUQI ASOSLARI | |
| 7.1. Jinoyat huquqi tushunchasi, uning vazifalari, predmeti va manbalari..... | 133 |
| 7.2. Jinoyat huquqi manbalari..... | 142 |
| 7.3. Ayb va uning shakllari hamda jinoyatning belgilari..... | 143 |
| 7.4. Jinoyatda «ishtirokchilik» tushunchasi..... | 150 |
| 7.5. Jinoyatda ishtirokchilik turlari..... | 152 |
| VIII BOB. EKOLOGIYA HUQUQI ASOSLARI | |
| 8.1. Ekologiya huquqi tushunchasi..... | 160 |
| 8.2. Ekologiya huquqi manbalari tizimi..... | 163 |
| 8.3. Tabiiy muhitni muhofaza qilish asoslari..... | 170 |
| 8.4. Ekologik huquqbuzarlik va javobgarlik..... | 176 |
| IX BOB. XALQARO HUQUQ ASOSLARI | |
| 9.1. Xalqaro huquqning vujudga kelishi..... | 185 |
| 9.2. «Xalqaro huquq» tushunchasi..... | 190 |
| 9.3. Xalqaro huquq manbalari..... | 193 |
| 9.4. Xalqaro huquq funksiyalari..... | 197 |
| 9.5. Xalqaro huquq va milliy huquq..... | 198 |
| 9.6. Xalqaro huquq obyektleri va subyektlari..... | 200 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR..... | 202 |
| GLOSSARIY..... | 204 |
| TESTLAR..... | 219 |